

PERSONAJLAR NUTQIDA SO'ZLASHUV USLUBI FONETIK XUSUSIYATLARINING IFODALANISHI

*Namangan davlat universiteti
Filologiya fakulteti 3-bosqich
Asqaraliyeva Dilshoda*

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'tkir Hoshimov ijodi asosida so'zlashuv uslubining fonetik elementlari qo'llanishi tahlil qilinadi. Yozuvchi ijodidagi so'zlashuv uslubiga xos so'zlar va ularning fonetik xususiyatlari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: giroy, o'zlashma qatlam, fonetik hodisa, O'tkir Hoshimov mahorati, yozuvchi uslub, fonetik elementlar.

Annotation: This article analyzes the use of phonetic elements of conversational style in the works of O'tkir Hoshimov. It examines words characteristic of the conversational style in the writer's works and their phonetic features, highlighting how these elements reflect the author's unique stylistic mastery.

Keywords: Giroy, borrowed layer, phonetic phenomenon, O'tkir Hoshimov's mastery, writer's style, phonetic elements.

O'tkir Hoshimov badiiy uslubga xos usul va vositalar yordamida o'z asarlari qahramonlarining nutqidagi badiiyatini aks ettirar ekan, asarlarida bir qator personajlarning nutqini ochib berishda ularning turmush tarzi, atrofdagilarga munosabati, dunyoqarashi, fikr ifodalashida til birliklarini qo'llashida o'zbekona milliy ruh, o'zbek xalqiga xos bo'lgan xususiyatlar o'z badiiy ifodasini topgan.

Yozuvchining mahorati shundaki, ijodkor asarlarida ishtirok etgan personajlar nutqida jonli so'zlashuvga xos xususiyatlar bo'rtib turadi. Bu holat so'zlashuv uslubiga xos fonetik elementlarning qo'llanishida yaqqol ko'zga tashlanadi.

Ma'lumki, so'zlashuv uslubida kishi ismlarini qisqartirib aytish keng kuzatiladi. Bu insonlar o'rtasidagi yaqinlik, tenglik ma'nolarini bo'rttirib ko'rsatadi: Oyim gapini tugatmasdan dadam ilib ketadi. "Qo'y, **Robi**, ovora bo'lma, o'g'ling osmondagi oyni oladi" ("Ikki eshik orasi").

Yozuvchi asarlarida ayollar nutqida fonetik dialektizmlar qo'llanishi ko'p kuzatiladi:

Xolposh xola to'y-hashamlarda Zuhra kelinini og'zidan bol tomib maqtasa ham biznikiga chiqqanda oyimga hasrat qiladi.

— Kuyib ketdim ovsinjon! **Potmam** bir emas ikkita bolali bo'ldi. **Zuram** yukli bo'lmayapti.

— Farzandi bilan davlatning kechi yo'q – deydi oyim yupatib.

— Odamlar o'n yil yigirma yilda bolali bo'ladi. **Zuraxonga** nima qipti. Bor-yo'g'i yetti yil o'tdimi?

— Ko'rsatmagan do'xtirim, boqtirmagan tabibim qolmadi. Qaysi kuni Komil tabibga yana obordim. Keliningiz soppa-sog' deydi.

— Ana aytmadimmi? Shunchayam siqilasizmi? Xolpash xola dardli bosh chayqadi.

Shundoq deysiz-u Zokirim o'qtin-o'qtin ichadigan odat chiqardi. Otasining fe'lini bilasiz-ku, bilib qolsa tikka so'yadi. **Zuram** ham chakkazarbaroq bo'p qoldi. Opasini ko'rib siqiladi-da, sho'rlik. Yoki: Hovli tomondan oyisining jahldor ovozi keldi:-Otasining molini talashadimi bular a? Qarab ko'r, **Mavlu!**(285- bet)

Ma'lumki, so'zlashuv uslubida so'zlar oddiy talaffuzga mos holda aytiladi, turli fonetik hodisalarga, asosan, tovush tushishi, so'zlarning qo'shib yuborilishiga yo'l qo'yiladi. Yozuvchi tasvirning jonliligi va hayotiyligini to'laroq aks ettirish uchun shu kabi hodisalardan dialoglarda foydalanadi:

- O'h-ho'! **Ja** osmondasiz-ku, yigit!

Yoki:

- Urre! Katta adam jevachka **obkeldila!**

Yoki:

-Mana, azamat yigit! **Bizzi qanddanam** yeb ko'ring. ("Ikki eshik orasi")

Kelishik shakllarini qisqartirib va qo'shilayotgan asosga moslab qo'llash, fe'l shakllarini qisqartirish, **ham** yuklamasini **yam shaklida** qo'llash holatlari personajlar nutqida keng uchraydi.

Boshqa millat vakillarining nutqini o'ziga xos yo'sinda berish ham asar hayotiyligini oshirishga xizmat qiladi:

Kabina eshigi ochilib, qo'ltig'iga qora sumka qistirgan kassir qiz – Faya sakrab tushdi. Vagoncha zinasiga pildirab chiqib baqirdi:

- Yigitlar, **kelig'iz, zarplata olig'iz!** ("Ikki eshik orasi").

O'zlashma qatlamga oid so'zlarni buzib, o'zbek tili fonetik tizimiga moslab talaffuz qilish so'zlashuv nutqida keng uchraydi. Bu holat O'. Hoshimov asarlarida personajlar nutqida faol uchraydi. Masalan, "Ikki eshik orasi" romanidagi asosiy qahramonlardan biri Umarga **zakunchi** laqabi berilgan. Bu so'z ham o'zlashma so'zning o'zbek tili fonetikasiga moslashtirilgan, jonli varianti. Quyidagi misollarda ham bu holatni kuzatdik:

-Qani, **giroy**, ketdikmi?- og'zidan tutun chiqarib ("Ikki eshik orasi").

Yoki:

Peshinda **obshi** qozondan sho'rva ichadi – shu! ("Ikki eshik orasi") Oqsoqol bilan cholim poyiz tagida qolganida qandoq chirqillagan edi, bola bechora...("Ikki eshik orasi")

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Неъматов Х., Бозоров О. Тил ва нутқ. – Тошкент: Ўқитувчи, 1993. – 32 б.
2. Неъматов Х., Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси асослари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995. – 128 б.
3. Нурмонов А., Искандарова Ш. Тилшунослик назарияси. – Тошкент: Фан, 2008. – 176 б.
4. Расулов А. Ардоқли адиб. – Тошкент: Шарқ, 2001.
5. Собиров А. Ўзбек тилининг лексик сатҳини системалар системаси тамойили асосида тадқиқ этиш. – Тошкент: Маънавият, 2004. – 160 б.
6. Турсунов У., Мухторов Ж., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Ўзбекистон, 1992. – 339 б.
7. Улуқов Н. Сўз – чиғаноқ ичидаги гавҳар// Тил ва адабиёт таълими, 2012. – № 11. – Б. 28- 29.
8. Шомақсудов А., Расулов И., Қўнғуров Р., Рустамов Х. Ўзбек тили стилистикаси. – Т.: Ўқитувчи, 1983. –Б. 241.
9. Шукуров Р. Сўз вариантлари. – Тошкент: Ўзбекистон, 1987. – 22 б.
10. Ўзбек тили стилистикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1983.
11. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдлик. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. I – 680 б.; II – 672 б.; III – 688 б.; – Тошкент, 2008. IV – 608 б.; V – 592 б.
12. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2002-2006 – 1-12- ж.
13. Ҳожиёв А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2002.
14. Ҳотамов Н., Саримсоқов Б. Адабиёшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1983.
15. Ҳошимов Ў. Сўз – энг сеҳрли санъат // “Ёзувчи” газетаси, 1997, февраль.
16. Ҳошимов Ў. Дафтар хошиясидаги битиклар. – Тошкент: Sharq, 2009.
17. Ҳошимов Ў. Саккизинчи мўъжиза. Адабий ўйлар. Ҳаёти ва фаолияти. – Тошкент: Mumtoz so'z, 2009.
18. Ҳошимов Ў. Машаққатли сафар. Китобхон билан икки оғиз суҳбат // Ўзбеклар. – Тошкент: Ғ. Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2011.